XIX asrning birinchi yarmida Germanyaning Frayburg universitetida bir qator olimlar – Frans Bom, Uolter Oyken, Aleksandr Rustov va Alfred Myuller-Armaklar tomonidan shakllantirilgan ordoliberalizm iqtisodiy maktabi Germanyaning milliy iqtisodiy yo'nalişlaridan sanalib, ordoliberalizm neoliberalizmning nemischa varianti deb ham ataladi. U ilk bor 1950-yillarda Frayburgda nashr qilingan ORDO jurnali nomi bilan mashhur bo'lgan. Ordoliberalizmning asosiy sifatida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini oqlash yotadi. Yo'naliş ta'limgotchilari davlatning iqtisodiyot ustida to'la hukmronligini inkor etib, aksincha, erkin bozor iqtisodiyoti va faol raqobat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'kidlashadi. Ushbu maqolada ordoliberalizm va Frayburg maktabi haqida qisqacha ma'lumot keltiriladi.

Ordoliberalizm Germaniya iqtisodiyotida 1970–1980-yillarda keynschilik inqirozga uchraganidan so'ng o'z "renessans"ini boshdan kechirdi. Ammo oradan o'n yil o'tgach, unga nisbatan qarshiliklar kuchaydi. Bunga asosiy sabab sifatida ordoliberalizmga mafkuraviy g'oyalar majmui sifatida qaralishi, hayotiy iqtisodiy isbotning



etishmasligi va ordoliberal qarashlar zamonga mos ravishda yangilanmay, ilk targ'ibotchilar fikrlarini bir necha yil davomida o'zgartirmasdan tatbiq qilinishini ko'rsatib o'tish mumkin. Shu tariqa, 2000-yillar oxiriga kelib, ordoliberalizm Germaniya siyosiy iqtisodiyotidan yo'qola boshladi. Hozirgi zamon nemis iqtisodchilari esa o'zlarini ordoliberal deb tan olmaydilar va ordoliberalizm haqida ilmiy ish olib borishdan hamda bahs qilishdan bosh tortmoqdalar.

Ordoliberalizm deb yuritiladigan iqtisodiy yo'nalish katta munozaraga sabab bo'lmoqda. Buni, ayniqsa, Evropa Ittifoqining iqtisodiy siyosatidan yaqqol ko'rish mumkin. Butun dunyo iqtisodchilari va turli jurnallarning asosiy mavzusiga aylangan ushbu tushunchaning jahon iqtisodiyotidagi o'rni haqida turli fikrlar mavjud. "Bir guruh olimlar ordoliberalizmni Evropada tinimsiz qat'iylikka intilishda nedemokratik va dogmatik deb rad etishgan, ikkinchi tomon vakillari esa ordoliberalizmni neoliberalizmga progressiv alternativa sifatida ma'qullahgan" [4] va ushbu qarama-qarshiliklarni o'zgacha dalillar bilan isbotlashgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

L. Erxard ta'limoti ordoliberalizmning nazariy asoslarida ishlab chiqilgan bo'lib, 30-40 yillardagi Frayburg iqtisod maktabi olimlari – birinchi navbatda V. Oyken, shuningdek, uning bevosita izdoshlari F. Böhm, L. Miksch, H. G. Dert asarlarida keltirilgan. Liberal kontseptsiyaning o'ziga xos nemischa varianti bo'lgan L. Erxard ta'limoti o'sha davrning yetakchi iqtisodiy qarashlari – keynschilik va dirigizmga ko'p jihatdan zid edi. Biroq, Angliya va AQSh iqtisodchilarining norozi fikrlariga qaramay, barcha partiylar, shu jumladan XDH rahbarlari tomonidan rejalashtirilgan islohotlarga keskin siyosiy qarshilik sharoitida, L. Erxard dasturi qabul qilindi va 1948-yildan boshlab, urush natijasida vayron bo'lgan xalq xo'jaligining tezda tiklanishini ta'minladi va uning yanada dinamik rivojlanishi Germaniya iqtisodiy mo'jizasidir.

Hozirgi vaqtida ordoliberalizm kontseptsiyasi Germaniya iqtisodiy siyosatining rasman tan olingen yetakchi yo'nalishi maqomini saqlab kelmoqda. Bozor iqtisodiyotining ushbu nemis modelining xususiyatlarini o'rganish va uning nazariy asoslanishi Rossiya va umuman, butun sobiq MDH auditoriyasi uchun dolzarb ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Birinchidan, tarixan o'zini amalda isbotlagan bozorni boshqarishning eng samarali mexanizmlaridan biriga misol sifatida. Ikkinchidan, 40-yillarda Germaniyaning markazlashgan (kartellashtirilgan) iqtisodiyotini yuqori darajada rivojlangan bozor tizimiga aylantirishning noyob tajribasi sifatida. Uchinchidan, sobiq sotsialistik iqtisodiyotdan bozorga o'tishning teng darajada noyob tajribasi sifatida, yangi federal shtatlar – sobiq GDR hududida amalga oshirildi. 1948 yilgi Germaniya islohoti tajribasi bu mamlakatlarda bozor islohotlari boshlanishidan oldin Polsha (L. Balcerovich) va Chexiya (V. Klaus) rahbarlari tomonidan diqqat bilan o'rganildi. Ijtimoiy bozor iqtisodiyotining nazariy va uslubiy asoslarini, uning evolyutsiyasini va amaliy natijalarini tahlil qilish zamонави rus voqelegining murakkab o'tish davri sharoitida yanada zarurdir. Bularning barchasi 90-yillarning o'talarida rus iqtisodchilari orasida ordoliberal nazariya muammolariga qiziqishning tiklanishiga olib keldi.

Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyotini erkin va xolis o'rganish mamlakatimizda 80-yillarning oxiridan boshlab kuzatilib, 90-yillarda rivojlandi. Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti nazariyasi asoschilari V. Eukken va L. Erxard, ordoliberalizmning nazariy merosini o'rganuvchi qator zamонави nemis iqtisodchilarining asarları rus tiliga tarjima qilingan. Germaniyada Valter Evken instituti va Lyudvig Erxard jamg'armasi, Frayburg va Marburg universitetlari, Yenadagi Maks Plank nomidagi iqtisodiy tizimlarni o'rganish instituti, KyoIndagi Iqtisodiy siyosat instituti va boshqa ilmiy tashkilotlar olimlari ijtimoiy bozor iqtisodiyoti muammolarini tadqiq etishmoqda. Eng mashhur mualliflar professorlar O. Shlext, K. Vatrin, X. F. Vünshe, X. Lampert, X. G. Krüsselberg, X. Leypold, V. Mayer, R. Peterhof, A. Shuller, U. Fehldir. Shuningdek, V. Eukenning nazariy pozitsiyalarini rivojlantirishga uning nabirasi Valter-Osvald Euken qo'shgan hissasini ta'kidlash kerak.

Rossiyada ordoliberal nazariya va ijtimoiy bozor iqtisodiyoti masalalari V. Avtonomov va V. Gutnik asarlarida, A. Chepurenko, A. Belov, V. Shenaev, V. Pankov, tarixchi B. Zaritskiy, shuningdek, JI. Kazakova, S. Platonova va boshqa bir qator muammolar o'rganilgan.

Maqolada ordoliberal konsepsiya nazariyasi va uslubiyatini tadqiq etishga doir dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy jarayonlar va tizimlarni modellashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish va guruhash usullaridan foydalanildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ordoliberalizmning mohiyati. Ordoliberalizm neoliberalizmning nemischa varianti bolib, unda ijtimoiy bozor iqtisodiyotiga katta urgu beriladi va bozor iqtisodiyoti, erkin raqobatni tashkil etishda davlat iqtisodiyotga faol aralashishi zarur deb hisoblanadi. Ushbu milliy yonalish asoschilari Uolter Oyken (1891-1950), Alfred Myuller-Armak (1901-1978), Aleksandr Rustov (1885-1963), Hans Grossman-Doert (1894-1944) va Frayburg maktabi asoschisi Franz Bom (1895-1977). [1] Ordoliberalizm iqtisodiy maktabining kelib chiqishi Germanyaning



Frayburg maktabiga borib taqaladi. Frayburg maktabi milliy sotsializm iqtisod va siyosatiga qarama-qarshi tarzda tashkil etilgan[11]. Ammo maktab a'zolari haligacha Germaniyaning tashqi dunyodan, ayniqsa, Ikkinchи Jahon Urushi boshlangandan keyingi izolyatsiya ta'sirida edilar. Natijada, ordoliberalizm Anglo-sakson iqtisodiyotidan mustaqil tarzda rivojlandi [10]. Nemis ordoliberal maktabi deb ham yuritiluvchi iqtisodiy maktab ordoliberalizm haqidagi dastlabki tushunchalar shakllanishida, keyinchalik Ikkinchи Jahon Urushidan keying Garbiy Germaniya iqtisodiy siyosatida oz aksini topgan. Ordoliberalizm ba'zi manbaalarda nemis neoliberalizmi deb ham ataladi. Dastlabki ordoliberalistlardan deb e'tirof etiladigan Aleksandr Rustov neoliberalizm atamasini 1938-yili Parijda bolgan Uolter Lippman kolokviumining yigilishida ilk bor e'lon qilgan va bu holat hozirgi kunda neoliberalizm va ordoliberalizmni bir tushuncha deb qaralishiga olib kelgan. Iqtisodchi Verner Bonefeld ozining "Kuchli davlat va erkin iqtisodiyot" asarida asosan davlat tamoyillariga asoslangan ordoliberalizmdan farqli ravishda neoliberalizmni erkin iqtisodiyot konseptsiyasida nisbatan individualistik deb ta'riflaydi. Ilk bor ordoliberalizm atamasi Frayburgda chop etila boshlangan ORDO jurnali sharafiga qoyilgan. Neoliberalizmning nemis bo'limi, taniqli nemis iqtisodchilarini 1927 yildan beri Frayburg universitetida ishlagan "Ordo" yilnomasi muharriri V. Yukken atrofida birlashtirgan. Eng mashhurlari Frayburg maktabi nazariyotchilarining raqobat tizimi va ijtimoiy bozor iqtisodiyoti kontseptsiyasi haqidagi ta'lomitlaridir. Ordoliberallar davlat iqtisodiy siyosatining ikkita asosiy yo'nalishini belgilab berdilar: iqtisodiy tizimni shakllantirish va takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri. Birinchi yo'nalishning mazmuni monopoliya va raqobatni tartibga solish, xususiy va davlat mulki o'rtasidagi munosabatlar, iqtisodiyotga bevosita va bilvosita aralashish choralar, tadbirkorlik faoliyatining huquqiy normalarini belgilashdan iborat. Ikkinchisi iqtisodiy o'sishni tartibga soluvchi davlat chora-tadbirlarining butun majmuasini o'z ichiga oladi. Ordoliberal ta'limotoing ma'nosi shundan iboratki, "davlat mohiyatan iqtisodiy tizimni shakllantirish bilan chegaralanadi, tartibga solishning o'zi va iqtisodiy jarayonning borishi o'z-o'zidan sodir bo'lad". Ordoliberallar kontseptsiyasida markaziy o'ren "funktional qobiliyatli mukammal raqobat narxlari tizimini" yaratishga berildi, ularning fikriga ko'ra, "har bir iqtisodiy siyosat chorasi uchun muhim mezon bo'lishi kerak". Raqobat doimiy ravishda monopoliyalar tajovuzlaridan himoyalangan "davlat instituti" sifatida tavsiflangan. Neoliberalistlardan zidli olaroq, ordoliberallar laissez-faireni qattiq tanqid ostiga olishdi. Ular davlat va iqtisodiyot ikki alohida vosita deb hisoblab, erkinlik va ijtimoiy farovonlikka davlatning iqtisodiyot ustidan nazorati bilangina erishiladi deb da'vo qilishdi. Adabiyotlarda 'Ordoliberallar, agar davlat hokimiyati tomonidan nazorat qilinmasa, erkin iqtisodiyot jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy tuzilishini buzadi, bu proletarlashgan ijtimoiy tuzilmalarga, siyosiyashgan iqtisodiy munosabatlarga va tadbirkorlik axloqining yemirilishiga olib kelishini tan olishadi', deyiladi [4]. Ordoliberalizmda ommaviy demokratiyaga qarshilik qilinadi, bunga sabab sifatida demokratiya ijtimoiy tartibsizlik va erkin bozorning chekinishga, monopoliya kuchayishiga olib kelishi korsatiladi. Darhaqiqat, monopoliyani cheklashda va erkin bozor iqtisodiyotini ta'minlashda davlat regulatorlari muhim orin tutadi. "Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti" tushunchasi muallifi Alfred Myuller-Armak bu borada davlatning faol aralashuvni raqobat uchun munosib sharoitni saqlab turishi haqida ta'kidlagan. Bu esa davlat aralashuvini minimallashtirishga harakat qilgan klassik liberallar tamoyillariga qarshi goya bolib keltirilgan. Myuller-Armak ozining "erkin bozor iqtisodiyoti" atamasi orqali erkin bozor kapitalizmi bilan ijtimoiy siyosatni birlashtirib, ham raqobatdosh iqtisodiyot, ham ijtimoiy adolatga erishish mumkin deb hisoblaydi. Iqtisodiy siyosatni ijtimoiy siyosatdan ajratgan holda ular uygunligiga erishish jamiyatda shaxsiy erkinlik va ijtimoiy tenglikni muvozanatlashtirishga imkon beradi. Mustahkam iqtisodiy siyosat uzoq muddatli barqaror rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi. Yuqoridaq fikrlar keltirilar ekan shuni yodda tutish kerakki, ordoliberallar davlatning iqtisodiyotga aralashuvni deganda uning ustidan toliq nazorat qilish yoki boshqarish emas, balki bozor iqtisodiyoti va erkin raqobat uchun yetarli sharoit yaratib berishni nazarda tutishadi. XX asrdan hozirgi kungacha Germaniya iqtisodiyotida ordoliberalizmning orni. Garchi Frayburg maktabi iqtisodiy yonalishi haqida ijobjiy va salbiy qarashlar mavjud bolsada, Germaniyaning hozirgi korsatkichlarga erishishida va Germaniya iqtisodiyotining dunyodagi rivojlangan iqtisodiyotlardan biriga aylanishida Frayburg maktabi yonalishining ta'siri katta ahamiyat korsatmagan (Tim Krieger and Daniel Nientiedt, 2022). Ordoliberalizm Veymar Respublikasi inqiroziga javoban yuzaga kela boshlagan. "Uning maqsadi Germaniyani an'anaviy korporativdan uzoqlashtirish edi" [2]. Ikkinchи Jahon Urushidan song Germaniyaning yangi iqtisodiy sistemasi bolgan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti shakllanishida ordoliberalizm muhim rol oynagan [7]. Ammo akademik tadqiqot dasturi sifatida ordoliberalizm unchalik muvaffaqiyat qozonmagan [10]. Frayburg maktabi yonalishi 1930–1940-yillarda nazariy tomonlama yuzaga kelgan bolsa, 1950-yillarga borib uning orni iqtisodiy siyosatda ancha susaygan va Germaniya siyosiy-iqtisodiy boshqaruvida keynesianismidan foydalana boshlangan. Bunga sabab sifatida 'ordoliberalizm asosan nazariy jihatdan organilib, amaliy isbotning yetishmasligi natijasida nemis iqtisodiyotida siyosiy korsatmalar yigindisi sifatida qabul qilinganligini keltirish mumkin. [9]. Keynes iqtisodiy maktabidan foydalanish 1970–1980-yillarga qadar davom etgan va bu vaqtga kelib Keynesianizm avvalgidek samara bermay qoyishidan Germaniya iqtisodiyotida inqiroz yuzaga kela boshlagan. 'Bu holat, bir tomondan, monetaristik fikrlash va siyosat korsatmalariga qiziqishning ortishiga, shuningdek, boshqa tomondan, bir necha on yillar avval ishlab chiqilgan ordoliberalarning goyalari qayta korib chiqilishiga olib keldi [6].. Ammo Josef Hien ozining ordoliberalizm haqidagi maqolasida



‘1949-yilda ordoliberal Lyudvig Erhard iqtisodiy ishlar boyicha vazir etib tayinlandi. Vazirlarning ekspert maslahat kengashida ordoliberalarning otirishi uning iqtisodiyot va siyosatdagi ornini oshirdi’, [2] deydi. Kopincha Garbiy Germaniya Markaziy banki mustaqilligida ordoliberalizm ta’siri borligi ta’kidlanadi. Oyken fikricha ‘pul qiyamatining ma’lum bir barqarorligi ta’milnagan ekan, raqobatbardosh tartibni amalga oshirishga qaratilgan barcha harakatlar behuda. Shuning uchun pul-kredit siyosati raqobat tizimi uchun ustuvor ahamiyatga ega. [5]. Ammo keng tarqalgan farazlarga qarshi olaroq, ordoliberalizm mamlakatning rivojlanayotgan monetar tartibida unchalik ta’sirga ega emas. [3]. Germaniya Federal Banki ham, adabiyotlar ham ordoliberalizmning mamlakat Markaziy banki mustaqilligiga aloqadorligi haqida guvohlik berishmaydi. Markaziy bank mustaqilligi ordoliberalizm natijasi bolmagan bir vaqtida, raqobat siyosati shakllanishi butunlay boshqacha bolgan. Franz Bom asl ordoliberal raqobat siyosatining “konseptual otasi” hisoblanib, u kartellar faoliyatiga qat’iy qarshilik qilgan. Keyinchalik kartel offisi boshqaruvchilari orasida ordoliberalallar va ularning shogirdlari faoliyati Germaniya kartel va monopoliya tizimiga oz hissasini qoshdi. [6].

## TAHLIL VA NATIJALAR

1980-yillarni iqtisodchilar ‘ordoliberalizm renessansi’ deb atashadi. Buning boyisi shu yillarda Germaniyada keynschilik avvalgidek muvaffaqiyat keltirmay, mamlakatda inqiroz yuzaga kelishi bilan bog’liq. Keynschilikning cho’kishi ordoliberal g’oyalarning qayta uyg’onishiga turki bo’ldi, mamlakat bo’ylab yana ordoliberalizm tarafдорлари uyg’ona boshladi. Mamlakat monetar va fiskal tizimini o’zgartirishda ordoliberal qarashlardan qisman foydalilanligi ham inkor qilinmaydi. Ammo ordoliberalizmning Germaniya iqtisodiyoti boshqaruvi maktabi sifatida shakllanishi uchun bir narsa yetishmas edi: ordoliberal qarashlar zamonga mos yangilanmagan, aksincha 30-yillarda ilk shakllangan nazariyalar yarim asrdan so’ng ham tadbiq qilinayotgan edi. [8]

Bu esa oradan 10 yil o’tganch 1990-yillarda odoliberalizmning qulashiga asosiy sabablardan biri sifatida ko’rsatildi. Bu vaqtga kelib Germaniyada AQSh iqtisodiy boshqaruv uslubi ham allaqachon o’z ta’sirini o’tkazayotgan edi. Nemis devori qulashi bilan Sharqiy va G’arbiy Germaniyaning birlashishi kommunizm parchalanib, ko’plab davlat korxonalari, ayniqsa, Sharqiy Germaniyada xususiyashtirila boshlandi. ‘Germaniya iqtisodiyot bo’limlari marjinallahganiga qaramay ordoliberalizmning iqtisodiy siyosiy maydonda o’zini ko’rsatishi uchun yana bir imkon ochildi. Sharqiy Germaniya iqtisodiyot bo’limlarida ordoliberalallarni tayinlash orqali marjinallinish qisman to’xtatildi, chunki sharqiy iqtisodiyot devor qulaganidan so’ng qayta tiklanishi kerak edi’ (Josef Hien, 2023, p. 10). Holat G’arbiy Germaniya universitetlarida ishslash uchun yetarlicha raqobatdosh bo’limgan iqtisodchilarga ish o’rinlarini yaratdi.

2000-yillarda so’ngida ordoliberalizm munozarasi xalqaro tus oldi. Kyoln usullari bo’yicha yuzaga kelgan bahs ordoliberal an’analarni cheklashning asosiy nuqtasi edi. ‘Bahs Kyoln Universitetida ilgari ordoliberal iqtisodiy siyosatga moslashtirilgan 6 kafedra makroiqtisodiyot kafedralari sifatida qayta tuzilganida yuzaga keldi [8]. Vilgelm Ropkening jiyani, ORDO jurnali tahrirchisi Hans Vilgerod va Myuller-Armak shogirdi Kristian Uotrinlar vaziyatni tanqid qilgan holda manifest yozib, uni 83 iqtisodchiga imzolatgach, Frankfurter Allgemeine Zeitung (FAZ) jurnalida chop ettirishdi. Voqeadan so’ng Handelsblatt jurnalida nashr etilgan qarshi manifest yozilib 188 nafar xalqaro miqyosdagi nemis iqtisodchilari tomonidan imzolandи. Ikki qarama-qarshi tomon o’ttasida turli bahs-munozaralar bo’ди, ko’plab iqtisodchilar turli ko’rinishda o’z fikrlarini bildirishdi. Asosan, qarshi manifestni qo’llab-quvvatlovchi xalqaro maydonda faoliyat yuritadigan olimlar ordoliberalizmning makroiqtisodiyotdan ustun qo’yilishini kulgili deb hisoblab, uni ‘mafkuraga singib ketgan’ va ‘ilm-fan ostiga yashirilgan siyosiy g’oyalalar’ deb atashdi[9]..

Protest vaqtining o’zida ordoliberalizm himoyachilari bo’lgan 83 nafar iqtisodchilar ancha yoshi o’tgan ilk ordoliberallar bo’lib, ularning orasida yangi avlod ordoliberalallari deyarli yo’q edi. Hozirgi kunga kelib ham ko’plab nemis iqtisodchilari, ayniqsa, Frayburg va Kyoln universitetlari olimlari o’zlarining ordoliberalizm bilan bog’liqliklarini muhokama qilishdan qochishadi. Hattoki, ko’plab Kronberger Kreis a’zolari ham ordoliberalizmdan qochishlarini, aksincha, ‘xalqaro darajada mos keladigan ilmiy ishlar’ qilishni ma’qul ko’rishlarini ta’kidlashadi. [3] A’zolardan biri Oyken va Bom tomonidan asos solingen ORDO jurnali haqida so’ralganda ularni hech kim o’qimayotganini aytib o’tgan[4]. Shu tariqa ordoliberalizm hozirgi kunda Germaniya iqtisodiy yo’nalishlari orasidan deyarli yo’q bo’lib ketdi.

Ordoliberalizmning Yevropa Ittifoqiga ta’siri. Adabiyotlarda yana bir davlat boshqaruvidagi misol sifatida Yevropa Ittifoqining 2008-yilda bo’lgan monetar inqirozdan chiqishda aynan ordoliberalizm tamoyillarini qo’llagani bilan bog’lashadi. Ordoliberalizm fiskal intizom va muvozanatlashgan byujetga katta e’tibor beradi. Bu tamoyil Yevropa Ittifoqining inqirozga bo’lgan munosabatiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Yevropa Markaziy banki va Yevropa Kommissiysi Gretsiya, Italiya kabi og’ir qarzdorlikka duch kelgan mamlakatlarni, ayniqsa, tejamkorlik choralarini ko’rishga undadi. Bir qator tarafgorlar yevrohududni stabillashtirishda fiskal qonun-qoidalarga rioya qilinishi zarur bo’lganini da’vo qilishgan bo’lsa, tanqidchilar bu g’oyalari jamiyatda ishsizlik darajasi oshib



ketishiga olib kelgani, bu o‘z navbatida, iqtisodiyotning qayta tiklanish jarayonini mujmallashtirganini e’tirof etishdi. Bundan tashqari, Yevropaning moliyaviy inqirozdan tiklanishda qo’llagan operatsiyalari ordoliberalizmning barqaror bozor iqtisodiyotini ta’minlashdagi mustahkam huquqiy chora tadbirlariga mos keladi. [13]

Yevrohududdagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri sifatida hozirgi kunga kelib ham Germaniya siyosiy iqtisodiyotining Yevropa Ittifoqiga ta’sirini ko’rish mumkin.

O’zbekistonda ordoliberalizm alomatlari. O’zbekiston demokratik huquqiy davlat bo’lishiga qaramasdan iqtisodiyotda davlat тартибга солишдаги иштироқи boshqa rivojlangan va hozirgi zamonaviy bozor iqtisodiyoti asosida boshqariladigan davlatlarga nisbatan faolroq deyish mumkin. Shunga qaramasdan so’nggi paytlarda erkin raqobat va ijtimoiy farovonlikni yanada mustahkamlash maqsadida turli davlat islohotlari o’tkazilmoqda. Bunga misol sifatida kuni kecha chiqarilgan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O’zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlash-tirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida” gi farmoniga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab bir nechta monopolistik davlat tashkilotlarining eksklyuziv huquqlari bekor qilinmoqda. Bu esa bozorda yanada raqobatdoshlikni oshirish uchun xizmat qiladi va ordoliberalizmning ‘erkin raqobatni davlat tomonidan ta’mil-nishi’ shartiga qisman mos keladi.

Ushbu keltirilgan fikrga qarshi tarzda shuni aytish mumkinki, bank va moliya sohasida imzolangan bir necha qonunlar, jumladan, ‘davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo’lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarini bir vaqtning o’zida isloq qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish’ haqidagi, hamda, ‘O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi banklar va bank faoliyati to’g’risidagi qonunchilikning banklar faoliyatiga davlat organlarining ma’muriy aralashuviga yo’l qo’ymaslik qismi ijro etishi ustidan nazoratni kuchaytirish’ haqidagi qarorlarning qabul qilinishi yurtimizda iqtisodiyotga davlat aralashuvini cheklash borasida qo’yligan yana bir qadam deyish mumkin. Bundan tashqari, bir necha davlat og’ir sanoat korxonalarini va bozorlarning yopiq aksiyanterlik jamiyatiga aylantirilishi iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sari jiddiy sayi harakatlar olib borilayotganidan dalolat beradi.

Yuqorida ko’rsatilgan o’zgarishlarga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O’zbekistonda ordoliberalizm yoki ordoliberalizmik g’oyalarga mos keluvchi alomatlar deyarli kuzatilmaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqola ordoliberalizm urushdan keyingi Germaniya taraqqiyotiga qo’shgan hissasi chegaralanganligini yoritib berdi. Ordoliberalizm - bu erkin raqobat va ijtimoiy erkinlikni faqatgina davlatning iqtisodiyotga ta’siri orqali ta’milanishini da’vo qiladigan, Veymar Respublikasi inqilobidan so’ng yuzaga kelgan nemis milliy iqtisodiy maktabi. 1930-yildan hozirgi kunga qadar ordoliberalizm tarafдорлари va boshqa iqtisodchilar o’tasida munozaralar bo’lib o’tdi. Hozirgi kunga kelib deyarli hech qaysi iqtisodchi, hattoki Frayburg va Kyoln universiteti olimlari ham ordoliberalizm ustida tadqiqot qilishni, o’zlarining ordoliberalizm bilan bog’liq ekanligini inkor qilishadi. So’nggi yillarda ordoliberalizm moliyaviy intizomga urg’u bergani va davlatning iqtisodiyotga aralashuviga qarshiligi uchun tanqid qilinmoqda. Tanqidchilarning ta’kidlashicha, bu siyosat iqtisodiy tejamkorlik va ijtimoiy tengsizlikka olib kelishi mumkin. Biroq, ordoliberalizm tarafдорлари u iqtisodiy samaradorlikni va ijtimoiy adolatni ta’minlovchi iqtisodiy siyosatga muvozanatli yondashuvni taklif qiladi, deb ta’kidlaydilar. Davlatning kuchli aralashuvi orqali ijtimoiy adolat, shaxs erkinligi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi yaxshi tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga erishishni ustivor yondashuv deb qaraladi

### Foydalananigan adabiyotlar:

1. В. П. Гутника “Теория хозяйственного порядка”. Фрайбургская школа и немецкий неолиберализм. Под ред.– М.: Экономика, 2002.
2. Abelschauser, W. (1987) Die Langen Fünfziger Jahre, Düsseldorf Schwann.
3. Bibow, J. (2009) ‘On the Origin and Rise of Central Bank Independence in West Germany’, The European Journal of the History of Economic Thought, 16.
4. Bonefeld, Werner, (1960) : The strong state and the free economy.
5. Buchheim, C. (2001) ‘Die Unabhängigkeit Der Bundesbank. Folgen Eins Amerikanischen Oktrois?’ Vierteljahreshefte Für Zeitgeschichte, 49, 1-30
6. Conze, E. (2009) Die Suche Nach Sicherheit, München, Siedler.
7. Goldschmidt, N. Wegner, G., Wohlgemuth, M. and Zweynert, J. (2009) : ‘Was Ist Und Was Kann Die Ordnungsoekonomik’, Frankfurter Allgemeine Zeitung.
8. Hien, Josef (2023) : The rise and fall of ordoliberalism, Socio-Economic Review, 2023, Accessed From: Oxford University Press, Vol. 00, No. 0, 1-20.
9. Kirchgässner, G. (2009, June 15) “Der Rückzug Ins Nationale Schneckenhaus” Frankfurter Allgemeine Zeitung.



10. Krieger, Tim; Nientiedt, Daniel (2022): The renaissance of ordoliberalism in the 1970s and 1980s, Diskussionsbeiträge, No. 2022-05.
11. Rieter, H., & Schmolz, M. (1993) : The ideas of German ordoliberalism 1938-1945: Pointing the way to a new economic order. European Journal of the History of Economic Thought, 1(1), 87-114.
12. Sheppard, Eric, and Helga Leitner (2010) : 'Quo vadis neoliberalism?' Geoforum 41 (2): 185-94.
13. Wagenknecht, S. (2011) : Freiheit statt Kapitalismus. Frankfurt: Eichhorn.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

